



RAQS JANRLARI VA ULARNING RIVOJLOV GENEZISI

Alimdjanova Nodira Abdugaparovna

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqs janrlarining rivojlanish jarayonlari, raqs san’atida musiqaaning o’rni va ahamiyati, raqs musiqasining o’ziga xosligi va badiiy uslublari ko’rib chiqilgan. Raqs san’atining xalq hayotidagi o’rni, musiqa va raqsning uyg’unligi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlar: raqs musiqasi, janr, ijrochilik san’ati, kuy, ritm, shakl.

ТАНЦЕВАЛЬНЫЕ ЖАНРЫ И ГЕНЕЗИС ИХ РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы развития танцевальных жанров, роль музыки в танцевальном искусстве, а также, художественные особенности танцевальной музыки. В статье уделяется внимание роли танца в жизни народа, взаимосвязь музыки и танца.

Ключевые слова: танцевальная музыка, жанр, исполнительское искусство, мелодия, ритм, форма.

DANCE GENRES AND THE GENESIS OF THEIR DEVELOPMENT

Annotation

This article discusses the development of dance genres, the role of music in dance art, as well as the artistic features of dance music. The article pays attention to the role of dance in the life of the people, the relationship between music and dance.

Key words: dance music, genre, performing arts, melody, rhythm, form.



Inson faoliyatining mahsuli bo'lmish san'atning mazmuni bizni o'rab turgan tabiat va hayotiy haqiqatning ifodasidir. San'at turlari inson fikri va his-tuyg'ularini ifoda etishga xizmat qiladi. Har bir san'at turining rivoji ma'lum tamoyil, shakl va ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Musiqa eng murakkab san'at turlaridan hisoblanib, inson hayotida katta o'rin tutadi.

Musiqa san'ati boshqa san'at turlaridan tubdan farq qiladi, u insonning hayolot dunyosiga ta'sir etadi va ongimizda turli obrazlar, fikrlar hamda tuyg'ularni uyg'otadi. Inson musiqani eshitish orqali qabul qiladi. Shu bois har bir musiqa asari kishilarda turlicha tasavvurni hosil qiladi.

Musiqiy asarning mazmuni kuy, garmoniya va ritm bilan bir qatorda turli shakl va janrlar bilan ham ajralib turadi. Musiqa san'atining ko'p asrlik rivoji jarayonida turli janr va shakllar hosil bo'lgan. Janrlar rivojida asosni qo'shiq va raqs tashkil etgan. Ular keyinchalik turli-tuman vokal, cholg'u, simfonik, kamer va sahna janrlarining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi uchun zamin bo'lgan.

San'at turlari qatoriga kirgan raqs(nemis so'zidan olingan)da bir tizimni tashkil etgan badiiy obraz plastik harakat, ritmik aniqlik va inson tanasining ifodaviy holati orqali yoritiladi. Musiqa san'ati bilan bevosita bog'liq bo'lgan raqs xoreografik kompozitsiyalar, harakat va figuralar aksida emotsional – qiyofalik mazmunga ega bo'ladi.

Musiqa san'at turlari ichida muhim o'rin egallab, opera, balet, teatr kabi boshqa san'at turlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musiqaning mazmuni spetsifik musiqiy obrazlarda xaqiqiy borliqning aks ettirilishidir. Musiqa va boshqa san'at turlari insonning nafaqat emotsional, balki butun ma'naviy hayotini aks ettirib, g'oyaviy, estetik bilim va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Raqs musiqasi raqs jo'rligi uchun mo'ljallangan musiqadir. Raqs musiqasida ma'lum raqs uchun xos bo'lgan raqs harakatlari namoyon bo'ladi. Har bir raqs musiqasi asosida unga xos bo'lgan ketma - ket, uzluksiz va o'zgaruvchan ritmik izchillik yotadi.

Turli raqslar uchun yaratilayotgan rang – barang usul va kuylar hamisha raqsning asosiy ritmik formulasi bilan hamohang bo'ladi. Raqs uchun mo'ljallangan musiqa asosan cholg'u musiqadir. Xalq maishiy hayotida raqs musiqasining vokal, ko'p hollarda xor uchun mo'ljallangan, cholg'u jo'rligida yoki jo'rsiz bo'lgan turlari keng



miqyosda tarqalgan. Ba’zida, raqsning cholg’u jo’rligi urma cholg’ular bilan cheklangan bo’ladi.

Pantomima bilan bog’liq raqslarda musiqa tasviriy xarakterga ega bo’lsa, keng va umumlashgan shakllarda raqs musiqasidagi tasviriy boshchilik teatr tomoshalari bilan bog’liqdir. Shuningdek raqs musiqasining konsertli turlari ham mavjud(konsert polonezlari, valsar va h.). Yengil musiqada ham raqs janrlari alohida mavqega ega.

Jamiyatning ilk shakllanish pallasida vujudga kelgan raqs musiqasi qo’shiq, so’z va o’yin bilan chambarchas bog’liq edi. U insonning mehnati, maishiy hayoti va marosimlar tarkibida o’z vazifasini bajarib keldi. Qadimga greklar rivoyatlariga ko’ra muzalardan biri – Terpsixora raqs san’atining ilhom parisi edi. Uning 8 ta singillari ham (Melpomena – fojea ilhomi, Taliya –hajviya ilhomi, Klio – tarix ilhomi va b.) bo’lgan. Yunon freskalari va tuvaklarida bu parilar bir-birlarining qo’llarini ushlab turgan holatda aks etilib, san’atlar o’rtasida yaqin munosabatlar bo’lganini bildiradi.

Raqs insonni butun umri davomida kuzatib boradi. Bu ovchilar to’dalarining qadimgi raqslarida(o’lja ustidan g’alaba qozonish uchun joduli iltijolar), dehqonlar raqsida esa qish faslini kuzatish va bahor-yozni intiqib kutishda o’z aksini topadi. Xalq raqs va davra o’yinlarida insonning turli ruhiy holatlari o’z ifodasini topdi: qayg’u va alam, lirika va bayramona tantana. Bunday raqslar hamisha musiqa jo’rligida bo’lib, raqqoslarning harakati va ifodaviy vositalarni yanada kuchaytirishga zamin yaratdi.

Keyinchalik bunday sodda xalq kuylari va raqslari asosida kompozitorlar ijodida amaliy ahamiyatga ega bo’lgan turli raqs musiqa janrlari shakllanib keldi. Ular ichida ma’lum raqsning nomi bilan atalgan kichik cholg’u asarlarni ham ko’rish mumkin. Masalan: Gaydn va Motsartning menuetlari, Shopenning vals va mazurkalari, Rossining “Tarantella” deb nomlangan ovoz va xor uchun qo’shiq va romans asari hamda raqs ritmlariga asoslangan katta hajmli simfonik kompozitsiyalar(Glinkaning “Kamarinskaya” va “Vals - fantaziya”si, Sibeliyusning “Qayg’uli vals”i), simfoniya va sonatalarning ayrim qismlari, operalardagi raqs lavhalari(Chaykovskiy “Yevgeniy Onegin” operasida bal sahnasi) va teatr uchun mo’ljallangan mustaqil xoreografik balet nomerlarini misol qilish mumkin.



Musiqaning mazmuni spetsifik musiqiy obrazlarda haqiqiy borliqning aks ettirilishidir. Badiiy-obrazli tafakkur, unga mos bo'lgan badiiy mazmun barcha san'at turlarining spetsifikasini yaratadi. Badiiy, xususan musiqiy obrazlar ijodiy ongda borliqni idrok etish natijasida paydo bo'ladi. Musiqiy obrazlar o'zi bilan hisli umumiydoshgan natijalarni yaratadi, musiqa va boshqa san'at turlari insonni nafaqat emotsional, balki butun ma'naviy xayotini aks ettirib, g'oyaviy, estetik bilim va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Musiqa nafaqat yoqimli yoki yoqimsiz bo'lmasdan, u badiiy obrazlikka to'lib, hayot, ruhiy kechinmalar haqida gapiradi. Musiqa musiqiy vositalar orqali badiiy bezashdan tashqari, o'rab turgan muhitning boy assotsiativ aloqalari bilan musiqiy obrazlar dunyosini ifoda etishi lozim. Shuning uchun ham mazmun shakl bilan teng emas, u ancha keng va boy.

Raqs musiqasining muhim jihatlaridan biri ma'lum ritmik formula asosida takrorlanadigan ritmik aniqlikdir. Shu jihatga ko'ra nafaqat raqs va raqs bo'lmagan musiqani, balki, valsni polkadan, mazurkani lezginkadan va h. ajratish mumkin.

Raqsning aniq ritmik – musiqiy jo'rliqi raqqosni nafaqat bir harakatda jamlaydi, balki katta emotsional ta'sir etish kuchiga ham ega bo'ladi. Sharq xalqlari, Afrika negrlari va AQSH hindulari raqslari ko'pincha faqat urma cholg'ular jo'rliqi bilan ijro etiladi.

Raqs musiqasining muhim jihatlaridan yana biri uning kuy(qo'shiq yoki cholg'u) sur'ati hisoblanadi. Ba'zi xalqlarda u jozibali va boy, boshqalarda esa lo'nda va tejamkor ko'rinishga ega bo'lib, kuyning ma'lum turi shu xalqning xarakteri, hayoti, tarixi hamda milliy ruhiga javob beradi.

Raqs musiqasi barcha xalqlarning ko'p asrlik ijodiyoti jarayonida bunyod etilgan yorqin milliy xarakteri va sifatlarini saralab oldi. Har bir xalqning raqs madaniyati nihoyatda boy va turfadir.

Aynan raqs musiqasining yorqin milliy xarakteri azaldan kompozitorlarni o'ziga jalb etgan. Xalq raqslari bir qancha buyuk klassik kompozitorlar asarlarining asosini tashkil etdi. O'z navbatida bu kompozitorlar sarmahsul ijodlarida musiqiy matnni bayon etish va rivojlantirish usullariga tayanganlar.

Raqs musiqasining ritmlari bir necha klassik simfoniylarning musiqiy mavzulariga asos bo'ldi (Vagnerning №7 simfoniyasi "Raqs apofeozi") hamda sonata, cholg'u

International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd June, 2025

va vokal asarlari shakllanishiga turtki bo'ldi. Raqs turidagi musiqiy asarlarning ko'plaridan syuitalar tashkil qilingan.

Ma'lumki, sonata turkumli shakllarining bir qismi raqs shaklida taqdim etiladi (Gaydn va Motsart menuetlari, Chaykovskiy valslari). Raqs obrazlari ham programmali musiqada o'z aksini topdi (Veber "Raqsqa taklif", List "Mefisto - vals").

Xalq raqs musiqasining ritmlari, ohang va musiqiy shakllari milliy maktablar uchun muhim manba o'rnida xizmat qilib keldi. Badiiy qayta ishlovlar va mustaqil asarlar sifatida milliy raqs bir qator kompozitorlar ijodidin o'rin oldi.

Glinka ("Kamarinskaya"), Shopen (mazurka va polonezlar), Grig (xallang va norveg raqslari) o'rin olgan. Shubert, Shopen, Chaykovskiy va Glazunovlarning ko'plab asarlarida vals shoirona talqin etilgan.



F.Shopen



F.Shubert

Vals Yevropa professional musiqasida keng tarqalgan bo'lib, uch hissali, o'rtacha tempdagi juftlik raqsidir. Vals raqsi uchun mayin va nafis aylanma harakatlar xos bo'lib, ushbu raqs maishiy musiqiy janrlardan biri hisoblanadi.

Vals XVIII- asrning oxirgi choragida avstriya, nemis xalq (ländler kabi) raqslari zaminida shahar sharoitida vujudga kelgan. XIX- asrning boshida yangi, lirik bal

International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd June, 2025

raqsi sifatida butun Yevropaga tarqalgan. Ayniqsa, ota-bola I. Shtrauslar takomillashtirgan turkum shaklidagi Vena valslari keng ommalashgan.

Vals janri romans, ariyalar uchun asos bo'lib opera operetta, balet va teatr musiqasida keng qo'llanilgan.

O'zbek musiqasida vals uslubidagi kuylar 1920-yillarda paydo bo'lgan Keyinchalik vals janri o'zbek bastakorlari (T. Jalilov, "Vals", M. Mirzayev, "Bahor valsi") va kompozitorlari (S. Yudakov, "Karnaval valsi", M. Burhonov, "Oq oltin" vals-syuitasi" X. Izomov, "Toshkent osmoni"; M. Leviyev, "Mahallada duv-duv gap" filmidagi vals va b.) ijodidan keng o'rin olgan.



Vals



Mazurka

International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd June, 2025

Mazurka — polyak xalq raqsi. Ushbu raqs Mazoviyada yashab kelgan xalq nomi bilan bogʻliq boʻlib, uch hissali, tez tempda juft boʻlib ijro etiladigan raqs hisoblanadi.

Raqsga xos joʻshqinlik va dilkashlik koʻpgina kompozitorlarga ilhom baxsh etgan. Mazurka butun Yevropada bal raqsi sifatida mashhur boʻlgan, opera va balet sahnalariga kiritilgan (M. Glinka, P. Chaykovskiy). F. Shopen, A. Skryabinlarning fortepiano mazurkalari jahon musiqasining mumtoz asarlariga aylangan.



Polonez

Polonez — polyak xalq raqslari asosida yuzaga kelgan uch hissali tantanavor bal raksi boʻlib, XVIII- asrdan Fransiya va boshqa Yevropa mamlakatlarida keng tarkalgan. Polyak milliy professional musiqasi shakllanishida muhim oʻrin egallagan ushbu raqs F. Shopen ijodida kengaytirilgan bir qismli shakldagi konsert asariga aylangan. Kompozitorlar M. Glinka, P. Chaykovskiy va boshqalar oʻz operalariga polonezni kiritganlar.

Polonez raqsi XIX- asrdan Polsha milliy madaniyatining ramzi hisoblanib, sobiq oliyjanob ruhni ifodalaydi.

Menuet (fransuzcha menuet, menu pas — mayda qadam soʻzidan) — qadimiy fransuz xalq raqsi. XVII- asrdan boshlab Lyudovik XIV saroyida bal raqsi sifatida mashhur boʻlib, “qirollar raqsi” hamda “raqslarning qirolli” nomlariga sazovor

International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd June, 2025

bo‘lgan. Menuet raqsi tez orada butun Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Raqs uch hissali bo‘lib, vazmin, nafosatli harakatlardan iboratdir.

Ushbu janr keyinchalik kompozitorlik musiqa ijodida rivoj topib, opera va balet, kamer-cholg‘u musiqa janrlari — syuita, sonata (I. Gaydn, V. Motsart) hamda simfoniya kiritilgan. J. Vize, P. Chaykovskiy, K. Debyussi, M. Ravel, S. Prokofev, I. Stravinskiylarning turlicha menuetlari keng tarqalgandir.



Menuet

Balakirevning fortepiano uchun “Islamey” fantaziyasida kabardin xalqlarining raqslari o‘rin olgan. Sharqning raqs obrazlari Glinkaning “Ruslan va Lyudmila”, Musorgskiyning “Xovanshina”, Borodinning “Knyaz Igor”, Rimskiy – Korsakovning “Shexerezada” va “Ispan kaprichchio” asarlarida muhrlanib qolgan. Raqs musiqasining amaliy ahamiyati turlidir: u “xizmat” vazifasini bajaradi, ya’ni, unga raqs tushish mumkin bo‘lgan bal, yengil hordiq uchun mo‘ljallangan raqslar kirsam, boshqa toifadagi raqslar nafaqat ritmik formula va sxemalarni, balki inson qalbi va ongida emotsional hissiyot va fikrlarni tug‘dirib namoyon bo‘ladi.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Авдеева Л.А. Балет Узбекистана. Т.:1975.
2. Васильева-Рождественская М. Историко-бытовой танец. М.:1963.
3. Ефименкова Б. Танцевальные жанры. М.:1962.
4. Королёва Э. Ранние формы танца. Кишинев,1977.
5. Попова Т. Танцевальные жанры. М.:1962.